

TAFAKKUR ZIYOSI

*Tafakkur ziyosi 4/2021
ilmiy uslubiy jurnal*



“Xalqimiz talablarini inobatga olgan holda, biz Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqdik va saylov jarayonida uni o‘ziga xos umumxalq muhokamasidan o‘tkazdik. Bu muhim konseptual hujjatda islohotlarimizning uzviyligiva davomiyliginita’minlash maqsadida, “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” degan tamoyil asosiy g‘oya va bosh mezon sifatida kun tartibiga qo‘yildi”.

“Prezident sifatida men mamlakatimiz tinchligi, el-yurt farovonligi, Vatan taraqqiyoti yo‘lida butun borlig‘imni bag‘ishlab, xalqimga sadoqat bilan xizmat qilishni hayotimning ma‘no-mazmuni deb bilaman. Men uchun bundan boshqa oliy maqsad, baxt-saodat yo‘q. Siz, qadrlı vatandoshlarimning chin dildan qo‘llab-quvvatlashingiz, nuroniy otaxon va onaxonlarimizning duolari, aziz yoshlarimizning ishonchi menga katta kuch-g‘ayrat beradi”.

SHAVKAT MIRZIYOYEV

BOSH MUHARRIR

*Shavkat Safarovich Sharipov –
pedagogika f. d., professor*

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARLARI

*Usmonjon Qosimov – fil. f. d.
G'ayrat O'roqboyevich Qodirov –
biologiya f. n., dotsent*

MAS'UL KOTIB

*Farrux Aqchayev – tarix
f. b. f. d., (PhD)*

TARJIMONLAR:

*Namoz Karimov,
Eldar Hasanov
(rus tili)*

*Kamoliddin Normurodov
(ingliz tili)*

SAHIFALOVCHILAR

*Guljaxan Kadirova
Adolat Uskinboyeva*

TEXNIK MUHARRIR:

*Murodulla Jo'rayev – filologiya
f. b. f. d., (PhD)*

NAVBATCHI MUHARRIR:

*Feruza Jumayeva – filologiya
f. b. f. d., (PhD)*

*Jurnal andozasi Raqamli ta'lim
texnologiyalari markazida
Rasuljon Meliquziyev
tomonidan tayyorlandi*

*Muassis - Jizzax davlat
pedagogika instituti*

*Jurnal yilda 4 marta
(har chorakda) chop etiladi.*

*Matnlarda foydalanilgan ko'chirma
va ma'lumotlar aniqligi uchun
mualliflar mas'uldirlar.*

*Jurnaldan ko'chirib bosilganda,
manba qayd etilishi shart.*

JAMOATCHILIK KENGASHI A'ZOLARI

Anatoliy Sagdullayev – tarix f. d., akademik

Komiljon Tojiboyev – biologiya f. d., akademik

Jak Miklovik – INSHEA universiteti professori (Fransiya)

*Vasiliy Kochurko – Baranovich DU professori, texnika f. d.
(Belorussiya)*

Gulsem Lekerova – psixologiya f. d., professor (Janub. Qozog'iston)

Furqat Jo'raqulov – siyosiy f. d., dotsent

Botir To'xtamishov – texnika f. n., dotsent

Sarvar Nazarqosimov – sotsiologiya f. b. f. d.

Baxtiyor To'rayev – falsafa f. d., professor

Xolbo'ta Turaqulov-texnika f. d., professor

Baxti Ochilova - falsafa f. d., professor

Qozoqboy Yo'ldoshev – pedagogika f. d., professor

Umrzoq Jumanazarov – filologiya f. d., professor

Abdug'afur Mamatov - filologiya f. d., professor

Rahmatulla Bekmirzayev – fizika-matematika f. d., professor

Oybek Axmedov – filologiya f. d., professor O'zDJTU

Faniya Axmedshina – tarix f. d., professor

Hamid Meliyev – pedagogika f. n., professor

Xudoybergan Mavlonov – biologiya f. d., dotsent

Qo'chqor Hakimov – geografiya f. n., professor v.b.

Ilyos Islamov – tarix f. d., dotsent

Rustam Abdurasulov – psixologiya f. d., dotsent

Zuxra Yaxshiyeva – kimyo f. d., dotsent

Muxtorqul Pardaev - tarix f. n., dotsent

Rabbim Yusupov – texnika f. n., dotsent

Oleg Kim – filologiya f. n., dotsent

Kamoliddin Zoyirov – pedagogika f. n., dotsent

Abdivali Shamshiyev – iqtisod f. n., dotsent

Sunnatullo Soipov – filologiya f. n.

Yulduz Karimova – filologiya f. n., dotsent.

Omon Isarov – filologiya f. n., dotsent.

Sherali Abduraimov – pedagogika f. b. f. d., dotsent

Furqat Axmedov - pedagogika f. n., dotsent

To'ychi Axmedov – tarix f. b. f. d., dotsent

Akbar Saitqosimov – falsafa f. d., professor

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining filologiya, falsafa va pedagogika fanlari bo'yicha ekspert kengashi (2018-yil 29-dekabrda) 260/6-son bayonnomasi) tavsiyasi bilan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal Jizzax viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasidan 2020-yil 25-aprelda 06-042 raqam bilan qayta ro'yxatga olingan. Jurnalning xalqaro ISSN raqami: 2181- 6131

*MANZIL: 130100, Jizzax shahri,
Sh. Rashidov ko'chasi, 4-uy, bosh bino
TELEFON: (99872) 226 02 93,
(99897) 644 84 44
FAKS: (99872) 226 46 56*

*JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
MATBAA BO'LIMI*

*Jizzax shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 4-uy
2021-yil 25- dekabr kuni bosmaxonaga topshirildi.*

*Qog'oz bichimi A4 Buyurtma: _____
Nashr adadi: 100*

MUNDARIJA

TAHRIRIYAT MINBARI

Sh. S. Sharipov Sharaflil kasb mas'uliyati haqida o'ylar.....	3
B. To'xtamishov Oliy ta'limda tub burilish: elektron ta'lim imkoniyatlari.....	6

TAQVIM 21-OKTABR – O'ZBEK TILI BAYRAMI KUNI

U. Qosimov, S. Ahmedov Til-millat qalbi, ruhiyat va ma'naviyat ko'zgusi.....	10
A. Mamatov Frazeologizmlarning antroposentrik lingvomadaniy tadqiqi.....	13

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA INNOVATSION TA'LIM

A. X. Kiyomov Bo'lajak texnologik ta'lim pedagoglarining kompetentligini shakllantirish tizimi.....	17
D. N. Mamatov Oliy ta'lim muassasasi va korxonada o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari.....	21
L. R. Zaripov, S. E. Zaripova Bo'lajak texnologiya o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligida integrativ-modulli o'qitish asoslari.....	25
S. Ubaydullayev, I. Y. Azamatov Texnologiya darslarida o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish imkoniyatlari.....	29
A. R. Aripdjanova Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining kreativ salohiyatini rivojlantirish.....	32
M. E. Zoirova, Z. Z. Yaxshieva Развитие креативного мышления у детей дошкольного возраста посредством химических опытов.....	35
G. X. Xasanova O'qituvchi va talaba muloqotida noverbal vositalarning qo'llanilishi.....	39
B. N. Husanov, B. M. Mirzayev Talabalarga badiiy qadriyatlarini o'rgatishda mediatalimining falsafiy va metodologik asoslari.....	45
U. U. Turamuratov Oliy ta'lim muassasalarida dual ta'lim tizimining joriy etilishi.....	48
K. Zoyirov Bo'lajak mutaxassislarini ijodiy-grafik faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari.....	51

AMALIY FANLAR

F. Q. Axmedov, A. I. Olimov Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini o'qitishda mobil ilovalarni qo'llash metodikasi.....	54
V. Sh. Raximov Sport-sog'lomlashtirish turizmi kadrlarini tayyorlashning pedagogik tizimi tahlili.....	57
M. Sh. Yaxshiyeva Sog'lomlashtiruvchi aerobikaning talaba qizlar jismoniy tayyorligiga ta'siri.....	63
U. Q. Utanov, S. Sh. Urinova Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishning ahamiyati.....	67
B. T. Aliyev, S. S. Boltazoda O'zbekistonda dirijorlik san'atining rivojlanishi.....	71

IJTIMOY FANLAR

B. Ochilova Вопросы традиций и ценностей в философии.....	75
A. A. Ashirov O'zbek oilasida suv bilan bog'liq madaniyat.....	80
S. U. Xodjanoyev Xorazm tasavvuf mutafakkirlarining g'oyalari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyani takomillashtirish.....	85
R. R. Nurqulova, L. S. Burxonov Abdullaxon II ning Buxoro xonligi ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'рни.....	89
Z. R. Isaqova Haqiqatning falsafiy-irfoniy interpretatsiyasi.....	92
T. O. Norov Alisher Navoiy ontologik qarashlarida nomoddiy olam tahlili.....	96
U. S. Musayev Yoshlarda yot g'oyalarga qarshi kurashda mustahkam e'tiqodni shakllantirish vazifalari.....	100
T. B. Nazarov Talabalarining ma'naviy immunitetini oshirishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish zarurati.....	103
R. Ablyakimova Oliy ta'lim muassasalarida talaba-qizlarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash.....	106
Q. O. Alimova Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Sog'lom bola" asarining tarbiyaviy ahamiyati.....	109
B. N. Omonov Ekologik vaziyat globallashtiruvining ijtimoiy-falsafiy mohiyati.....	113

FILOLOGIYA FANLARI

A. Musayev Kollokvializmlarning paydo bo'lishida polisemiya va ko'chimlarning o'рни.....	118
N. K. Buriyeva The morality and the impact of society on the lives of orphans in 'Oliver twist' by Charles Dickens.....	120
F. U. Jumayeva Takroriy so'zlar va polisemiya.....	125
T. O. Kuchqorov Sak-massaget eposi va To'rabekxonim haqidagi Xorazm rivoyatlari suyujetining genezisi.....	130
Sh. I. Siddiqova Ko'chirma gap sintaksisi.....	133
D. A. Salimova Oydin Hojiyeva she'riyatida tavsifiy lirika namunalari.....	137
S. E. Jo'rayeva Shukuriyning forsiy merosi.....	140
M. Y. Jo'rayeva Evrilish motivi haqida ba'zi qaydlar.....	143
J. N. Sagidullayeva, G. I. Zinatdinova Lirik va epik xronotopning o'ziga xos xususiyatlari.....	146
N. M. Shamurodova O'zbek va ingliz tillarida sabab ergash gapli qo'shma gaplar.....	149
M. Mirsoatova O'zbek hujjatli filmlari tarixi xususida.....	152

TABIIY VA ANIQ FANLAR

R. N. Bekmirzayev, B. Sultonov, O. Sh. Eshtuxturova Fizika fanini o'qitishda ekologik tarbiya berish.....	155
M. Barakayev, A. Shamshiyev, M. Barakayeva Maktab o'quvchilariga kombinatorik masalalar yechishni o'rgatish metodikasi.....	159
S. S. Aliqulov Bo'lajak fizika o'qituvchisining tajriba bajarish kompetentligini rivojlantirish tamoyillari.....	164
A. A. Qarshiyev Loyiha metodi o'quvchilarda axborot kompetentligini shakllantirishning istiqbolli yo'nalishi sifatida.....	168
Қ. Азимов Применение мультивариантных исследовательских методов в решение некоторых уравнений алгебры и задач геометрии.....	173

YOSH TADQIQOTCHILAR

D. A. Egamqulova Tarixiy dunyoqarash va shaxs ma'naviy qiyofasi.....	180
S. Y. Djasanova Xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirishda ijtimoiy muhit va mahallaning o'рни.....	182
Q. Q. Razzoqov Chishtiya tariqati va tasavvuf ta'limotida axloqiy-tarbiyaviy munosabatlar.....	187
Z. Sh. Yaxshieva Формирование компетентности при лингвокультурной самоидентификации.....	191
A. Q. Ibragimov O'zbekistonda ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishning innovatsion omillari.....	195
A. Hakimov Jamiyatda fuqarolik mas'uliyatini yuksaltirishning ijtimoiy mexanizmlari.....	198
Ф. И. Даминова Вклад Николая Алексеевича Некрасова в русскую литературу.....	202
Л. Р. Бекмирзаева Идеальная совокупность произведений Чингиза Айтматова "Плаха", "Белый караван" и Шойима Бутаева "Крепость луны" ("Укрепленный месяц").....	205
G. Esirgapova Abdulla Qahhor ijodining tarjima madaniyati.....	209
D. N. Raxmatova Ma'rifatga chorlagan ma'rifatparvar.....	213
D. Azimova "Jannatga yo'l" dostonida davr va shoir shaxsi muammosi talqini.....	218

yoki narsaga aylanadi deb ishongan. Shuning uchun marhum jasadini dafn etishdan oldin totem jonzod terisiga o'rganlar... Ana shu an'ana asosida totem terini kiyish orqali o'z qiyofasini o'zgartirish mumkinligi haqidagi tasavvurlar kelib chiqqan²³.

Demak, totemistik qarashlar tarixida evrilish muhim ahamiyat kasb etgan. Hayvonlarni totemlik mohiyati asosini qarindoshlik tushunchasi tashkil etar ekan, qadimgi odamlar ham o'zlarini "qarindoshi" qiyofasida ko'ra olishlari mumkin (o'zga dunyoda). Aks holda ma'lum bir hayvonlarni o'z ajdodboshilari sanab, ilohiylashtirmagan bo'lar edilar. Totemizm izlarining mifologiya, qolaversa, folklor janrlari tarkibida boshqa diniy e'tiqod va qarashlariga nisbatan ko'proq uchrashiga sabablardan biri totem sanalgan narsaning mavhum (ruhlar kabi) emas balki,

tabiatda mavjudligidir.

Umuman olganda, evrilish motivi qadimgi etnografik aniqlikdan uzilib qolgan bo'lsa-da, u ajdodlarimizning keng tafakkur durdonalari sifatida folklor asarlarida yashab qolgan. Ma'lum bir maqsadga qaratilgan, voqealar oqimida muhim rol o'ynaydigan evrilish motivi o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari tarkibidan mustahkam o'rin olib, folklor asar talablariga mos holda yashab, muhim g'oyaviy-tematik, badiiy-estetik vazifa bajaradi.

Evrilish motivini tadqiq etish, xalq tafakkur tarixini tadqiq etishdir. O'zbek folkloridagi epik motivlarni, jumladan evrilish motivini o'rganish xalq og'zaki ijodi asarlarining ma'no-mohiyati, ahamiyati, yuksak badiyatini his etish imkonini beradi.

LIRIK VA EPIK XRONOTOPNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Jamila Nurillayevna Sagidullayeva – f.f.n, dotsent, Nukus, O'zbekiston, Qoraqalpoq davlat universiteti
Gao'har Ilalatdinovna Zinatdinova – tayanch doktorant, Nukus, O'zbekiston, Qoraqalpoq davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada epik va lirik xronotopning o'ziga xos xususiyatlari adabiy tur va janrlarning spetsifikasi bilan bog'liq holda o'rganilgan. Epik xronotop xususiyatlari hozirgi qoraqalpoq romanlari misolida tadqiq etilgan. Lirik xronotop bo'yicha tadqiqotlar, ilmiy nazariy fikrlar atroflicha o'rganilgan va xulosa keltirilgan.

Аннотация: В статье исследуются особенности эпического и лирического хронотопа применительно к специфике литературных типов и жанров. Особенности эпического хронотопа применены на примере современных каракалпакских романов. Детально изучены и обобщены исследования лирического хронотопа, научно-теоретические идеи.

Abstract: The article explores the specific features of the epic and lyrical chronotope in relation to the specifics of literary types and genres. Epic chronotope features are applied in the example of modern Karakalpak novels. Studies on the lyrical chronotope, scientific theoretical ideas have been studied in detail and summarized.

Kalit so'zlar: epik xronotop, lirik xronotop, kompozitsiya, makon va zamon, retrospeksiya, prospeksiya, individual stil.

Ключевые слова: эпик хронотоп, лирик хронотоп, композиция, макон ва замон, ретроспекция, проспекция, индивидуаль стиль.

Keywords: epic chronotope, lyrical chronotope, composition, space and time, retrospective, prospectus, individual style

Adabiy tur va janrlarning shakllanishida xronotop kategoriyasi katta ahamiyatga ega¹. Epik, lirik va dramatik tur xronotoplarining hususiyatlari adabiy tur va janrlarning spetsifikasi bilan uzviy bog'liq. Biz bu maqolada epik va lirik turdagi xronotopning o'ziga xosliklarini o'rganishni maqsad qildik.

Epik turda qahramonlar, ularning taqdir yo'llari, hayoti, hodisa va voqealarga munosabatlari, harakatlari, kayfiyati, xayollari va fikrlari ifodalanadi. Adabiyotshunos V.E.XaliziyeV epik turni «o'tgan zamon

hodisalari haqida hikoya» deb ataydi². Demak, epik xronotop masalasining yechimi yoki kalit so'zi o'tgan zamon kategoriyasi hisoblanadi. Chunki, epik asarda syujet, muallif va kitobxon xronotopi beriladi. Ular orasida masofa bor³. Bu masofaga faqat o'tgan zamon nuqtayi nazaridagina baho berish mumkin. Masalan, syujet-muallifning badiiy fikrlashi mahsuli. Kitobxon uni yakunlangan, o'tgan zamondagi hodisa sifatida qabul qiladi (syujet-muallif-kitobxon). Bu holatda xronotop badiiy asar, muallif va kitobxon o'rtasidagi munosabatni

1 Бахтин М. М. Вопросы литературы и эстетики. Исследования разных лет. Москва, «Художественная. Литература», 1975 // www.twirpx.com//; Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Тошкент, «Ўзбекистон», 2002; Есин А.Б. Принципы и приёмы анализа литературного произведения. Москва, «Флинта. Наука», 2000/www.studfiles.net//

2 Хализев В.Е. Теория литературы. Москва, «Высшая школа», 2002, стр.235-236.

3 Шодиев Н., Тураева Б. Бадий вақт ва унинг системаси. Тошкент, «Фан ва технология», 2012,19-б.

23 Пропп В.Я. Исторические корни волшебной сказки. – Л., 1946. – С.184-185.

shakllantiradi. Bu barcha epik asarlarga, ayniqsa, tarixiy mavzudagi epik asarlarda o'z ifodasini topadi.

O'zbek adabiyotshunosligida epik xronotop masalasi E.Abotaliyeva, S.Mirvaliyev, D.To'rayev, M.Qo'shjonov, N.Shodiyev, E.Abotaliyeva, B.Karimov, A.To'ychiyev, U.Jo'raqulov, O. Nazarov, B.To'rayevalar tomonidan o'rganildi⁴. Ularda A.Qodiriy, A.Fitrat, O.Yoqubov, P.Qodirov, O.Muxtor singari taniqli o'zbek yozuvchilari asarlarida epik xronotopning ifodalanishi, hususiyatlari haqida ilmiy fikrlar bildirilgan.

Qoraqalpoq adabiyotshunosligida epik xronotopga, ayniqsa, romanlardagi badiiy makon va zamon masalasiga e'tibor qaratildi. Adabiyotshunos P.Nurjanov: «Tarixiy romanlarda badiiy zamon va makon kategoriyasining ifodalanish hususiyati bor. Bu avvalo ifodalanayotgan davr va muallif orasida katta vaqt oralig'ining mavjudligi, ifodalanayotgan voqealar muallif nuqtayi nazari bilan birga berilishiga bog'liq. Shu sababli tarixiy roman kompozitsiyasida ifodalanayotgan vaqt, muallif vaqti, hikoyachi vaqti, kitobxon vaqti – hammasi birlashtirilib, tarixiy haqiqatni badiiy haqiqatga aylantirishga, muallif pozitsiyasini berishga xizmat qiladi»⁵, – degan fikr bildiradi va tarixiy roman xronotopining o'ziga xosliklari T.Qaipbergenovning «Qoraqalpoq dostoni» trilogiyasi misolida tahlil etiladi.

Xronotop epik turda katta ahamiyatga ega. Chunki, epik kuchning asosi – voqea. Voqeani epik asarga (roman, qissa yoki hikoyaga) aylantirish qanday amalga oshiriladi? Kundalik hayotdagi har qanday voqea epikaga asos bo'la oladimi? Albatta, yo'q. Buning uchun yozuvchi, avvalo, o'z ijodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, qayta ishlashga muhtoj deb hisoblagan hayotiy voqeani homashyo sifatida oladi. Keyin unga loyiq ifoda usuli tanlanadi. Hayotiy voqeaning kimning ishtirokida bo'lishi epik qahramonni, qachon (zamon) va qayerda (makon) bo'lishi epik xronotopni paydo qiladi. Bundan ma'lum bo'lganidek, bizningcha, epik xronotopning xizmati hayotiy voqeani epik voqea darajasiga ko'tarilishini ta'minlashdan iborat.

Epik asarlarda xronotop lirik asarlardagi

singari birdaniga o'zgarmaydi, “sakrab ketmaydi”, balki asta sekin yo'nalishini o'zgartiradi. Bu holatda qahramonlarning ma'lum bir vaqt birligi ichida bir joydan ikkinchi joyga ko'chib o'tishi aniq ko'zga tashlanadi. Masalan, taniqli qoraqalpoq yozuvchisi Sh.Seytovning «Iqbol so'qmoqlari» romanida bosh qahramon Maqsetning qishloqdan shaharga, keyinroq shahardan qishloqqa ko'chib o'tishlari, o'z makonini o'zgartirishi beriladi⁶. Bu holatda zamon va makon bir-biriga sabab-oqibat munosabatida berilgan bo'lib, o'z hayot yo'lini izlagan yosh yigit shaharga keladi, ish qidiradi, har xil ishlarni qilib ko'radi, oradan vaqt o'tib, o'zining makoni qishloqda ekanligini tushunadi, natijada qishlog'iga qaytib keladi. Romandagi Maqset obrazi adabiyotshunos M.Baxtin ta'kidlagan “xronotopik xarakterga ega odam obraziga” misol bo'la oladi.

Epik xronotop ko'p qatlamliligi bilan farqlanadi. Katta hajmli epik asarlarda muallif ijodiy niyatini amalga oshirish ko'p funksiyali roman xronotopini talab qiladi. Bu holatda badiiy vaqt yetakchi hisoblanadi, u makonning o'zgarishini ta'minlaydi. Masalan, K.Karimovning “Zardusht” romanida har bir vaqt qatlami o'z syujet yo'nalishlarini paydo qiladi⁷. Romanda o'tmish (payg'ambar Zardusht atrofidagi voqealar), bugungi kun (Xuvarno pansionatidagi Yakubbay, Gulniholga bog'liq voqealar) va kelajak (amerikalik Jonning hayolidagi zardushtiylik dini va o'z umriga bog'liq fikrlari) parallel beriladi.

Romandagi badiiy makon voqealarning harakatlanish chegaralarini belgilab beradi. Bu holatda o'tmish voqealari Oks daryosi bo'ylarida, Sug'd, Turlar, Baktriya yerlarida, bugungi kun voqealari Xuvarno pansionatida (Qoraqalpog'iston hududi) bo'lib o'tadi. Romanda har bir syujet o'z yo'nalishi bo'yicha harakatlanadi. Muallif xronotopni ifodalashda retrospeksiya (lot. «o'tmishga murojaat, o'tgan voqealar va kechinmalar tahlili») va prospeksiya (lot. «mo'ljallangan xatti-harakatlar va voqea-hodisalar namoyoni») usullaridan foydalanadi.

Epik qahramonlar aniq bir joyda (tog', shaxar, qishloq v.b.) va aniq vaqtda (yil, oy, fasl, soat) harakatlanishi bilan ham farqlanadi⁸. Shuningdek, ba'zi holatlarda

4 Abotaliyeva E. *Prostranstvo i vrema v russkoyazychnoy proze Sreney Azii*. Diss. kand. filol. nauk. Toshkent, 1993; Mirvaliyev S. *Roman va zamon*. Toshkent, «Fan», 1983;

Turaeva D. *Xozirgi uzbek romanlarida badiiy tafakkur va maqorat muammosi*. Filol. fan. d-ri. diss. avtoref. Toshkent, 1994; Tuiychiev A. *Uzbek romanlarida makon va zamon*.

Toshkent, «Mumtoz s'z», 2009; Juraqulov U. *Nazariy poezika masalalari: Muallif. Janr. Xronotop*. Toshkent, «Ga'fur Gulom nomidaги nashriyot-matbaa ijodiy uyi», 2015;

Aliqer Navoiy «Xamsa»sida xronotop poezikasini: Filol. fan. d-ri. diss. Toshkent, 2017; Turaeva B. *Tarixiy romanlarda badiiy zamon muammosi*. Toshkent, 2018. Nazarov U. O.

Muxtor romanlarida badiiy xronotop muammosi. Filol. fan. b'ycha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. Qarshi, 2018.

5 Nurjanov P. *Tarixiy romanlarda ko'rkem vaqt ham kechilik // «Etnodary»*, 2000, №6, 110-6.

6 Seyitov Sh. *Yig'al soqalqlari*. Nekis, «Qaraqalpaqstan», 1975.

7 Karimov K. *Zardusht*. Nekis, «Bilim», 2018.

8 Xursanov D. *Lirik va epik turda xronotopning uzaiga hosliklari // Xorijiy filologiya*. 2018, №2, 84-87-66. // www.samxorfil.uz

muallif badiiy makonni birlashtiradi. Bu holatda vaqt birdaniga zichlashadi yoki asta-sekin cho'ziladi. Natijada, epik qahramonlar o'tmishda yoki kelajakda yashay olishadi.

Muallifning badiiy fikrlash va syujet qurishdagi mahorati natijasida epik xronotopning o'ziga xos turi xotira makoni va xotira vaqti yuzaga keladi. Masalan, M.Nizanovning «So'nggi istak» romanida hikoya qilinayotgan vaqtdan 30-40 yil oldingi voqealar bosh qahramon Orzuboyning xotirasi orqali beriladi. U darvesh holida «Xudoyi qo'noq» (qoraqalpoqlarda uyiga mehmon bo'lib kelgan begona odamni shunday ataydi) sifatida Xojaxmetning uyiga keladi. Shu joyda uy egasiga o'zining yoshlik yillari, ishi, Biybisora degan qizga uylangani, farzandli bo'lgani, Kiyevdan kelgan aspirant qiz Oksanani sevib qolishi, u bilan birga Kiyevga ketishi, Oksananing kasallikdan vafot etishi, o'zining darvesh holida ko'p qiyinchiliklarni boshidan kechirgani, Vataniga qaytib kelganiga qadar hayotidagi hodisalarni so'zlab beradi⁹. Bu holatda Orzuboyning xotira vaqti zichlashadi, 30-40 yillik voqealar bir kechaga joylashtiriladi. Badiiy makon ba'zida cho'ziladi, ba'zida birikadi. Orzuboyning real makoni Nukus shahri (Xojaxmetning uyi) bo'lgani bilan u 12 soatda o'z xotira makonini Yevropagacha cho'za oladi, shuningdek, Izmir (Turkiya) bilan Kiyev (Ukraina) makonlarini (Izmir – Kiyev oralig'i 1700 km) biriktiradi.

Lirika hayotiy o'zgarishlarni tez ifodalovchi¹⁰, g'oyalar, emotsiyalar va konsepsiyalar diapozoni keng, subektiv adabiy tur hisoblanadi¹¹. Epikada voqealarga, dramada konfliktga «itoatkor» bo'lgan badiiy personaj lirikada shaxsiy ichki kechirmalariga, meditativlik mulohazalariga ega lirik qahramon-individual shaxs darajasiga ko'tariladi va shularga asoslangan holda alohida lirik xronotopning xususiyatlarini yuzaga chiqaradi.

Lirik xronotop epik xronotopga nisbatan keyinroq o'rganila boshladi. Buning sababi, lirikada zamon va makon kategoriyalari lirik qahramonning ichki hislariga teran singib

ketadi, natijada ularni alohida ajratib ko'rsatish qiyinlashadi. Lirik asarlardagi xronotop roman yoki qissalardagi singari o'tgan zamondagi hodisa ko'rinishida aniq ko'zga tashlanmaydi. Insonning ichki kechirmalari, hislaridagi o'zgaruvchanlik, standartlarga, normativlarga bo'ysinmaslik, ekpressivlik, emotsionallik kabi belgilarni o'zida mujassam etgan lirik xronotopni o'rganish ratsional fikrlashga asoslangan va konkret hodisaga qurilgan epik xronotopni o'rganishga nisbatan bir qancha murakkab hisoblanadi.

Lirik xronotop rus adabiyotshunosligida atroflicha tadqiq etildi¹². Taniqli olim V.Xalizevning fikricha, lirikada xronotop «motiv va leytmotiv ko'rinishida ramziy xarakterga ega bo'ladi»¹³. Bunda xronotop ramziy obraz darajasiga ko'tariladi. Masalan, lirikada kuz xronotopini inson umrining oxiri, keksayish, shuningdek, kutish va sog'inchning ramzi sifatida an'anaviy tasvirlash shakllangan. Shu bilan birga, har bir shoir o'ziga xos fikrlash, tasvirlash uslubiga ega bo'ladi. Bu jarayonda ananaviy ramziy obrazlar yangi mazmun va ko'rinishni hosil qiladi, turlanadi. Demak, lirikada zamon va makonga munosabatni individual uslubning dastlabki sharti sifatida qabul qilish mumkin.

O'zbek adabiyotshunosligida lirik xronotop masalasi ma'lum darajada tadqiq etilgan. «Adabiy turlar va janrlar» kitobida lirik xronotop haqida shunday deyilgan: «makon, sharoit eposda aniq, keng, o'tgan zamon voqeasi sifatida ko'rinadi, lirikada esa hozirgi zamon hodisasi, lirik holat sifatida, dramada esa ko'z oldimizda jonli namoyon bo'ladi»¹⁴. Shuningdek, lirik xronotop masalasi Q.Yo'lchiyev¹⁵, D.Xursanov¹⁶ singari olimlar tomonidan o'rganilgan.

Lirik asar markazida lirik qahramon turishi ma'lum. Lirik xronotop ushbu qahramon bilan shoir o'rtasidagi masofani belgilaydi. Ko'pincha lirik qahramon bilan shoir orasidagi masofa qisqa bo'ladi, ba'zi hollarda ular umumlashib ketadi. Tadqiqotchilar N.Shodiyev, B.To'rayevlar bu haqida shunday deydi: «lirik vaqt – lirik qahramonning his-tuyg'ulari vaqti,

9 Нызанов М. Соңғы тилек. Таңламалы шығармалары. Некис, «Билим», 2018.

10 Оразымбетов Қ. Таңламалы шығармалар топламы. Еки томлық. I том. Некис, «Билим», 2018, 5-б.

11 Хализев В.Е. Теория литературы. Москва, «Высшая школа», 2002. стр. 346-354.

12 Хализев В.Е. Время и пространство. Теория литературы. Москва, «Высшая школа», 1999; Жукова И.М., Нежданова Н.К. Образы пространства и времени в русской поэзии XIX–XX веков. Монография. Курган, 2012; Ким Ен Сук. Художественное пространство в лирике Б.Пастернака. Автореф. дис. канд. филол. наук. Москва, 2001; Зотов С. Н. Художественное пространство – мир Лермонтова. Автореф. дис. док. филол. наук. Ставрополь, 2001; Ловчинский Н. Образы пространства в современной русской постмодернистской поэзии. Автореф. дис. канд. филол. наук. Волгоград, 2010 // www.dsLib.net.

13 Хализев В.Е. Теория литературы. Москва, «Высшая школа», 2002. стр. 249.

14 Адабий турлар ва жанрлар. (Тарихи ва назариясига оид). Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. Тошкент, «Фан», 1992, 56-61-66.

15 Юлчиев Қ. Рауф Парфи учликлариди макон ва вақт категорияси. // Бухоро давлат университети илмий ахбороти. 2019, №2, 135-139-66

16 Хурсанов Д. Шавкат Рахмон шеърятиди макон ва замон тасвири // Хорижий филология илмий ахборотнома, 2017, №4, 67-70; Замоновий шеърятди бадийи вақтнинг образли ифодалари // «Тил ва адабиёт таълими», 2019, №3, 36-39; Лирикади макон хусусиятлари // «Ўзбек тили ва адабиёти», 2019, №3, 74-79; Ўзбек модерн шеърятди хронотоп масаласи // Хоразм. «Илм сарчасмаси», 2018, №6, 82-86; Лирик ва эпик турди хронотопнинг ўзига хосликлари // Хорижий филология илмий ахборотнома, 2018, №2, 84-88.

izhori dil vaqtidir», binobarin, shoir vaqti bilan lirik qahramon vaqtining uyg'unlashuvi – aql va hisning garmoniyasini hosil etadi»¹⁷. Bu o'z navbatida lirik xronotopning cheksizligini ta'minlaydi.

Demak, epik xronotop o'zining aniq ko'rinuvchanligi, ko'p qatlamliligi, psixologik ifodalashga bog'liq xotira vaqti va xotira makonini paydo qilishi, zamon (zichlashuv, qisqarish) va makonning (cho'zilish, birikish) o'ziga xosliklarini namoyon qilishi,

adabiy qahramon, muallif va kitobxon o'rtasidagi munosabatni shakllantirish singari xususiyatlari bilan boshqa turlardagi xronotoplardan ajralib tursa, lirik xronotopning o'ziga xos xususiyatlari lirik turning belgilariga bog'liq bo'lib, bunda lirik his-tuyg'ular, ichki kechirmalarning emotsional-ekspressivlik darajasi, ularning shoir ruhiyatiga ta'sirini o'rganish ahamiyatli hisoblanadi.

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SABAB ERGASH GAPLI QO'SHMA GAPLAR

Naima Muxtarovna Shamurodova – o'qituvchi, Samarqand davlat chet tillar instituti

Anotatsiya: Ushbu maqolada sabab ergash gapning nima ekanligi, sabab ergash gapli qo'shma gaplarning ahamiyati, ingliz tili hamda o'zbek tilida sabab ergash gaplarning yasalishi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan, shu bilan birga sabab ergash gaplarga doir misollar ham o'zbek tilida ham ingliz tilida o'zbek va ingliz tilida yaratilgan asarlar misolida o'rganilgan. Tarjimada uchraydigan muammolar haqida ham atroflicha ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация: В этой статье представлена ценная информация о том, что такое каузальное местоимение, важность союза с причинным местоимением, образование причинных местоимений в английском и узбекском языках, а также примеры каузальных местоимений в узбекском языке. Это также изучается на примере произведений создано на узбекском и английском языках на английском языке. Примечательно, что в переводе также представлена подробная информация о возникших проблемах.

Abstract: This article provides valuable information on what is a causal pronoun, the importance of conjunctions with a causal pronoun, the formation of causal pronouns in English and Uzbek, as well as examples of causal pronouns in Uzbek. It is also studied on the example of works created in Uzbek and English in English. It is noteworthy that the translation also provides detailed information about the problems encountered.

Kalit so'zlar: qo'shma gap, sabab ergash gapli qo'shma gaplar, shartlanganlik munosabati, "sabab-natija", why?, only, yordamchi so'zlar, yordamchi vazifasini bajaruvchi mustaqil so'zlar butun bir turg'un birikma.

Ключевые слова: союзы, причинные союзы, условные отношения, «причинно-следственная связь», почему?, Только вспомогательные слова, независимые вспомогательные слова, целая устойчивая комбинация.

Keywords: conjunctions, causal conjunctions, conditional relations, "cause-and-effect", why?, only, auxiliary words, independent auxiliary words, a whole stable combination.

Zamonaviy tilshunoslikda tillarni o'zaro taqqoslash, ularning xususiyatlarini qiyoslash ayni paytda tilshunoslarning eng qiziqarli, shu bilan birga eng samarali usullaridan biri bo'lib kelmoqda. Bu esa kitobxonlar ahliga jahon adabiyoti tarjimalarini o'qishga imkon bermoqda. Shu bilan birga mamlakat adiblari tomonidan yozilgan tarixiy hamda badiiy adabiyot durdonalarini jahon kitobxonlariga o'qish uchun zamin yaratilmoqda.

Shuningdek, tarjima asarlarni yaratish, tillarni qiyoslash tarjimondan g'oyat katta mashaqqat, sabr va albatta bilim talab etadi. Tarjimon mehnatini hech qachon ikkinchi darajali deb tushunmaslik kerak. Uning mehnati yozuvchi mehnati bilan barobar. Tarjima tillarni mukammal bilish, egallash

bilan yuzaga chiqadi. Qadimgi adiblarimizdan biri Yusuf Xos Hojib mashhur "Qutadg'u bilig" ("Baxt keltiruvchi bilim") asarida inson hayotida tilning o'rnini shunday ta'riflagandi:

*Uquvga, bilimga tilmochdir bu til
Yoritguvchi emi ravon tilni bil.
Kishini til ulug'lar, topar qut kishi
Kishini til tubanlar, yorilar boshi...*

Tarjimon tilning mana shunday ulug'lovchi, odamni baxtiyor qiluvchi imkoniyatlarini ishga solib, taraqqiyotga xizmat qiluvchi shaxsdir¹.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tillarni o'zaro taqqoslash juda qiyin mehnatligi bilan birga, juda qiziqarli hamdir. Ingliz tili va o'zbek tillari bitta tillar oilasiga kirmagani bois ushbu tillarda gap tuzilishi hamda grammatikada

1 I.G'afurov, O.Mo'minov, N.Qambarov TARJIMA NAZARIYASI O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 5220100-Filologiya (tillar bo'yicha), 5220600 tarjima nazariyasi va amaliyoti ta'lim y o'nalishi talaba lari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsuya etilgan «Tafakkur Bo'stoni» Toshkent – 2012, 15- bet

17 Шодиев Н., Тўраева Б. Бадий вақт ва унинг системаси. Тошкент, «Фан ва технология», 2012, 17-18-66.



Jurnalning xalqaro ISSN raqami : 2181-6131
Jurnalning Index raqami: 3535